

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
rektor **LASDIQBAKMAN**
2024 yil
Ro'yxalga olindi: №
2024 yil avgust

**PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA
FANINING O'QUV DASTURI
(1-kurs magistratura)**

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	70110501 - Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

Termiz - 2024

Fan/Modul kodi PKT1104	O'quv yili 2024-2025	Семестр 1	ECTS - Кредитлар 5	
Fan/Modul kodi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Pedagogik konfliktologiya	60	90	150
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>“Pedagogik konfliktologiya” fani talabalarni o‘qitishdan maqsad – bakalav magistrnlarni pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariya hamda amaliyoti bo‘yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta‘minlashdir. Chunki, hozirgi zamon o‘qituvchisi hayotimizda yuz berayotgan ta‘lim o‘zgarishlarning asosiy ishtirokchilaridan biri bo‘lib, u har tomonlama yetu chuqur bilimga ega bo‘lgan mutaxassis, Vatani va xalqiga sodiq, pedagog mahorat va layoqatga ega bo‘lgan, jamiyatdagi hamda kasb vazifalarini yaxs bilgan shaxs etib tarbiyalashdan iboratdir.</p> <p>Fanning vazifasi - davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislarni faq nazariy bilimlarni chuqur o‘rgangan holda emas, balki ayni vaqtda buyuk inson fazilatlariga ega bo‘lgan, muomalaga kirisha oladigan, o‘z ishini puxta egallag mohir mutaxassislar etib tayyorlashdan iboratdir.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Pedagogik konfliktologiyaning mohivati, obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo‘lishi.</p> <p>Konfliktologiya yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biri ekanligi. Pedagogik konfliktologiyaning mohivati, obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo‘lishi haqida ma‘lumot berish.</p> <p>2-mavzu. Pedagogik konfliktologiyaning fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanishi.</p> <p>Pedagogik konfliktologiya fani ixtisoslik fani hisoblanib, uning rivojlanishi qator pedagogik, xususan, pedagogika, pedagogika nazariyasi, oila pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik</p>			

mahorat, umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, pedagogika tarixi, qiyosiy pedagogika, shuningdek, anatomiya va fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, tarix, huquq va boshqa ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqadorlikda o'rganiladi va shu fanlar bilan birgalikda rivojlanadi.

3-mavzu. Konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida: konfliktogenlar.

Konfliktlar bir inson hayotining ajralmas tarkibi hisoblanadi. Konflikt vaziyatlarning kelib chiqishida biz bilishimiz zarur bo'lgan narsa shuki, konfliktlarning kelib chiqishida "konfliktogen"lar juda muhim rol o'ynaydi. Konfliktogen - konfliktga imkon beruvchi, konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatida tahlil qilinadi. Konfliktlar murakkablashib boradi. Shunga yarashm odamlarning hayot tajribasi ham bosiqlik, mulohazakorlik, jiddiylik tomon o'zgarib boradi. Chunki inson ulg'aygan sari o'z his-tuyg'ularini jilovlashga, ularni tartibga solishga, boshqarishga o'rganadi.

4-mavzu. Nizo, uning mazmuni va turlari.

Nizoning turlari, nizolar oldini oluvchi xabarlar, nizolarni hal qilishga yondashishlar, V.M.Afankovning nizo haqidagi fikrlari, nizolarning subyektiv xususiyatlari va pedagogik-psixologik asoslari, nizoli vaziyatning obyektiv mazmuni, pedagogik-psixologik konfliktologiyani nazariy tahlil qilishdagi dastlabki xulosalar, nizoli vaziyat ishtirokchilarining turli himoyalash shakllari, nizoning rivojlanishi borasidagi bosqichlari haqidagi bilim va tasavvurlarini oshirish.

5-mavzu. Konflikt signallari.

Konflikt signallari va konfliktning to'la namoyon bo'lishi. Konflikt signallari: inqiroz, tomonlar orasidagi tanglik, tushunmovchilik, xasadgo'ylik, insidentlar, diskomfort va ular haqida ma'lumot. Konfliktli vaziyat, insident va konflikt oldi holatlarni hal etish.

6-mavzu. Agressiya va zo'ravonlik haqida tushuncha. Uning mohiyati

Agressiya va zo'ravonlik o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o'sib borishi va to'planishi oqibati sifatida zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Agressiya va zo'ravonlikning o'zaro bog'liqligi, Inson kayfiyatida agressiv holatlarning o'sib borishi va to'planishi, Agressiya inson xarakterida tug'ma va tabiiy bir element sifatida

7-mavzu. Konfliktli vaziyatda g'azab va qahr

G'azab, jahl, qahir kabi psixologik holatlar aynan konfliktli vaziyatlarda ko'plab vujudga kelishi uchun katta imkon bo'ladi. Tomonlar

to'qnashuvining psixologik-ruhiv natijasi, o'zga tomonga nisbatan shakllangan his-tuvig'u, o'zini muhofaza qilish yoki o'zga odamga bosim va tazyiq o'tkazish usuli sifatida g'azab, jahl, qahr konflikt vaziyatlarning odatdagi ham roli ekanligi haqida ma'lumot berish.

8-mavzu. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarning o'ziga xos xususiyatlari

Ta'lim va tarbiya ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lganligi sababli o'quvchi va o'qituvchilar orasida ayrim kelishmovchiliklar sodir bo'lib turadi. Kelishmovchiliklarning oldi olinmasa nizoga aylanadi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilish ko'pchilik pedagog va psixolog tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni, ya'ni konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olish yo'llari.

9-mavzu. Konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning roli

Oiladagi tarbiya, oiladagi tarbiyaning funktsiyalari, oiladagi noto'g'ri tarbiyaning asosiy turlari, oilada bola xulqining buzilishi, ota-onaning noto'g'ri tarbiyasining natijasi, oiladagi tarbiya jarayonining pedagogik konfliktologiya bilan aloqasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

10-mavzu. Jamoadagi konflikt va uni yechimga olib kelish yo'llari

Jamoda mos kelishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning asosiy guruhlari, xodimlarning janjalkashliklariga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik xususiyat turlari, nizo sabablari, nizolarni hal qilish usullari, shaxslararo nizolarning oldini olish yo'llari borasidagi bilimlarni kengaytirish.

11-mavzu. Pedagogik konfliktologiyada tana zaboni

Tana zaboni - sizning qanday yurishingiz, turishingiz, qandav ovozda so'zlashishingiz, qanday kiyinishingiz, sizning imo-ishoralaringiz, mimikangiz, umuman olganda qandaydir ma'noga ega bo'lganligimda axborot tarqatish va qabul qilishida ishtirok etgan tana harakatlaringiz majmuasi ekanligi haqida ma'lumot berish.

12-mavzu. Muomala madaniyati va to'g'ri muloqot qoidalari

Muomala madaniyati - o'zga insonga bo'lgan munosabat madaniyati bilan belgilanishi. Ichki madaniyatga ega bo'lgan odamgina turli vaziyatlarda ular qanday boshqa insonga nisbatan doimiy to'g'ri, samimiy va aniq munosabat ko'rsata oladi. Muloqot madaniyati insondan boshqa insonga nisbatan har doim bir tekis munosabat ko'rsatilishini talab etadi. Muloqot madaniyati insondan o'z ustida muntazam ish olib borishni talab etishi va muloqot madaniyati o'z-o'zidan vujudga kelib

qolmasligi haqida ma'lumot berish.

13-mavzu. O'zgani anglash (eshitish va o'zini anglatish qoidalari)

O'zlikni anglatishni tenglik sharoitida olib borish muhim talablardan biriga aylanadi. Konflikt yechimida o'zgani eshitish va o'zini anglatish qonuniyatlariga rioya etish yo'llari.

14-mavzu. Konfliktlarni boshqarish tartiblari va usullari

Konflikt yechimini topish uchun konfliktni boshqarishning o'ziga xos usullarini egallash. Konfliktlarni boshqarish haqida ma'lumotlarni bilish va ularni qo'llay olish. Konfliktologiyada konfliktlarni boshqarish usullari. Konfliktlarni boshqarishning besh asosiy usuli haqida ma'lumot berish.

15-mavzu. Pedagogik konfliktologiyada tolerantlik tushunchasi va mediatsiva qoidalari

Dunyoviy davlatchilik asoslarining bosh tamoyillaridan biri tolerantlik hisoblanadi. Shu bois XXI asr takomilini tolerantlik tafakkurisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tolerantlik tafakkuri millatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida ularning barchasining o'zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, tenglik va o'zaro hurmat asosida yashash jarayonlarini anglatadi. Mediatsiva - vositachilikning asosiy qoidalari. Mediatsiva (vositachilikning) besh asosiy ustunliklari haqida ma'lumot berishi.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Pedagogik konfliktologiyaning mohiyati, obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo'lishi. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning paydo bo'lishi madaniy-tarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlari.
2. Pedagogik konfliktologiyaning fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanishi.
3. Konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida: konfliktogenlar
4. Nizo, uning mazmuni va turlari
5. Konflikt signallari
6. Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlari
7. Konfliktlarni boshqarish tartiblari
8. Konfliktologiyada konfliktlarni boshqarish usullari
9. Konfliktli vaziyatda g'azab va qahr
10. Pedagogik konfliktologiyada tana zaboni
11. Muomala madaniyati va to'g'ri muloqot qoidalari

12. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarning o'ziga xos xususiyatlari
13. Konfliktida "G'olib-G'olib" strategiyasi va uning amal qilish tamoyillari
14. Konfliktlarni bartaraf etishda "Men-tasdiqlar" (Men- murojaat) usuli
15. Pedagogik konfliktologiyada tolerantlik tushunchasi va mediatsiva qoidalari

IV. Mustaqil ta'limning mavzulari

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Sharq mutafakkirlarining konfliktlarni yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish haqidagi pedagogik g'oyalarini o'rganish hamda tahlil etish
2. O'qituvchi va o'quvchilarning pedagogik hamkorligi-pedagogik konfliktlarni hal etish shaklaridan biri
3. Pedagogik qarama-qarshilik-tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirish manbai sifatida
4. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi konfliktli vaziyatlar profilaktikasi
5. Vaziyatni noto'g'ri idrok etish va uning oqibatlari
6. Pedagogik konfliktning echimi va uni boshqarish texnologiyasi
7. Pedagogik konfliktning rivojlanish bosqichlari
8. Shaxslararo konfliktlarni boshqarish sohasi va strategiyasining birligi
9. Pedagogik faoliyatda muammoli vaziyatlar
10. O'quvchilar orasidagi konfliktli vaziyatlar
11. Pedagogik muloqotning konfliktogenligi profilaktikasi
12. Pedagogik takt.
13. Ta'limiy hamkorlik - pedagogik konfliktni yechishning samarali shakli
14. O'qituvchining o'z ustida ishlashi va kamchiliklarini bartaraf etishi uchun psixologik testlar
15. O'qituvchining ma'naviy dunyosi va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabati
16. Pedagogik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari
17. Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash muammolari
18. Sharq mutafakkirlarining konfliktlarni yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish haqidagi pedagogik g'oyalarini o'rganish
19. O'qituvchi va o'quvchilarning pedagogik hamkorligi – pedagogik konfliktlarni hal etish shakllari.
20. Pedagogik qarama-qarshilik – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirish yo'llari
21. Pedagogik konfliktlarning asosiy manbalari

	<p>22.O'z guruhida konfliktli-stressli vaziyatlarni tahlil etish 23.Ta'lim-tarbiya jarayonidagi konfliktli vaziyatlar profilaktikasi</p>
<p>3.</p>	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Pedagogik konfliktologiya tayyorgarlik tizimi talablarini, o'quv-tarbiyaviy jarayon asosida yotgan qonuniyatlarni egallash yo'llari; • Pedagogik konfliktologiya faoliyat metodikasi; • Pedagogik konfliktologiya yangi pedagogik texnologiya va texnika; • Pedagogik konfliktologiya mohiyatini tushunish xususiyatlari; • bu jarayonning uslub va tamoyillarini kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimiga ko'chirish malakasiga ega bo'lish yo'llari; • Pedagogik konfliktologiya egallash yo'llari; <p>Pedagogik konfliktologiya va uni shakllantirish yo'llari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> • pedagogik-psixologik tayyorgarlik tizimi talablarini va o'quv-tarbiyaviy jarayon asosida yotgan qonuniyatlarni egallash; • Pedagogik konfliktologiya pedagogik faoliyat metodikasini qo'llash; • yangi pedagogik texnologiya va texnikani qo'llash; • ta'lim jarayonining uslub va tamoyillarini kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimiga ko'chirish ko'nikmasiga ega bo'lish; • Pedagogik konfliktologiya pedagogik texnika va madaniyatni muayyan tizimga solish va uni shakllantirishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • Pedagogik konfliktologiya pedagogik-psixologik tayyorgarlik tizimi talablarini va o'quv-tarbiyaviy jarayon asosida yotgan qonuniyatlarni mohirona egallash; • Pedagogik konfliktologiya pedagogik texnologiya va texnikani mohirona qo'llash; • ta'lim jarayonining uslub va tamoyillarini kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimiga ko'chirish malakasiga ega bo'lish; • Pedagogik konfliktologiya pedagogik texnika va madaniyatni muayyan tizimga solish va uni shakllantirish <i>ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak</i>.
<p>4.</p>	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

	<ul style="list-style-type: none"> • ijodiy ishlar yaratish.
5.	<p>VII. Kredittlarni olish uchun talabalar (Requirements for obtaining loans):</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda muntazam qatnashish; munozaralar va o'quv konferensiyasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish; • joriy va oraliq nazorat topshiriqlarini bajarish; • mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; • yakuniy nazorat topshirish
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. -Т.: Адабиёт учкунлари. 2017.- 320 б. 2. Ibragimov X., Yo'ldoshev U. va boshqalar. Pedagogik psixologiya. -Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009 y. - 400 b. 3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -Т.: Iqtisod-moliya, 2011.- 420 b. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. -Т.: Fan va texnologiya, 2008.- 288 b. 5. Леонов Н.И. Конфликтология. Москва-Воронеж, 2006. - 232 с. 6. Козер Л. Основы конфликтологии. - СПб . : Светлячок. 1999. 7. Степанов Е.И. Современная конфликтология: Общие подходы к моделированию, мониторингу и менеджменту социальных конфликтов: Учебное пособие. -М.: Издательство ЛКИ, 2008. - L76 с. 8. Степанов И.И., Баныкина С.В. Конфликты в современной школе. Изучение и управление./ Серия "Социальные конфликты: экспертиза, прогнозирование, технологии разрешения. - М.: Ком.книга, 2006. 9. Самарин А.Н., Степанов Е.И., Шаленко В.Н. Духовные проблемы нашего времени /Социальные конфликты в контексте глобализации и регионализации. -М.: URSS. 2005. <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 10. http //JJ_ tdpu.uz 11. http://Zivonet.uz 12. http://edu.uz 13. www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O 'z.MK) 14. http://teoriya.ru 15. http://uni-vologda.ac.ru 16. http://pedlib.ru 17. http:// pedagog.uz 18. http://ndpu.uz <p>Izoh: qo'shimcha adabiyotlar boshqa axborot-resurs markazlarida mavjud.</p>

7.	Fan dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil "30" avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul ushun mas'ullar va dastur muallifi: Nudayberdiyeva X.K Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida v.b professor (DSc)
9.	Taqrizchilar: Chariyev I. – Termiz davlat universiteti "Pedagogika va ijtimoiy ish" kafedrasida Pedagogika fanlari doktori professor. Avliyaqulov T.X – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD) v/b dotsent.

